

**BO‘LAJAK BOSHLANG‘ICH SINIF O‘QITUVCHILARIDA NUTQIY  
KOMPETENSIYANI SHAKLLANTIRISHNING ZAMONAVIY METODLARI**

*Ilmiy rahbar: A.J.Xo‘jamqulov*

*Toshkent Kimyo Universiteti Samarqand filiali Boshlang‘ich ta‘lim nazariyasi va metodikasi yo‘nalishi 1- kurs magistranti.*

**Metinova Sakina Husen kizi**

**Annotatsiya:** *Mazkur maqolada bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarida nutqiy kompetensiyani rivojlantirishning zamonaviy metodlari, pedagogic texnologiyalar hamda kommunikativ yondashuvning ahamiyati yoritilgan. Shuningdek, talabalarning og‘zaki va yozma nutqini rivojlantirishda interfaol metodlardan foydalanish masalalari tahlil qilingan.*

**Kalit so‘zlar:** *Nutqiy kompetensiya, kommunikativ kompetensiya, pedagogik texnologiya, interfaol metodlar, boshlang‘ich ta‘lim, pedagogic mahorat, nutq madaniyati.*

**KIRISH**

Bugungi globallashuv jarayonida ta‘lim tizimi oldingi raqobatbardosh, keng dunyoqarashga ega, mustaqil fikrlovchi pedagog kadrlarni tayyorlash vazifasi qo‘yilmoqda. Ayniqsa, boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining nutqi ravon, tasirchan va pedagogik jihatdan mukammal bo‘lishi muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki boshlang‘ich ta‘lim bosqichida o‘qituvchi nutqi o‘quvchilar uchun asosiy namuna hisoblanadi. Ta‘lim tizimida pedagogning bilim darajasi bilan bir qatorda uning fikrni tushunarli, tartibli va ta‘sirchan yetkazib bera olish qobiliyati ham muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari kichik yoshdagi bolalar bilan ishlagan sababli ularning so‘zlash uslubi, muomala madaniyati hamda bayon qilish mahorati yuqori bo‘lishi talab etiladi. O‘quvchilarning darsni yaxshi anglashiga, fanlarga qiziqishining ortishiga hamda fikrlash doirasining kengayishiga ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi.

Shu sababli pedagogik olim ta‘lim muassasalarida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarida nutqiy kompetensiyani rivojlantirish dolzarb masalalardan biri sanaladi.

Asosiy qism

Nutqiy kompetensiya- shaxsning fikrini og‘zaki va yozma shaklda erkin, hamda mantiqiy ifodalay olish qobiliyatidir. Bo‘lajak o‘qituvchilarda ushbu kompetensiyani rivojlantirish ta‘lim sifati va pedagogik faoliyat samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Hozirgi kunda nutqiy kompetensiyani shakllantirishda bir qator zamonaviy metodlardan samarali foydalanilmoqda.

Nutqiy kompetensiya insonning o‘z fikrini aniq, ravon va mazmunli tarzda ifodalash ko‘nikmasidir. Ushbu jarayon nafaqat og‘zaki muloqotda, balki yozma bayon etishda ham muhim ahamiyat kasb etadi. Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilar uchun mazkur qobiliyatni rivojlantirish kasbiy tayyorgarlikning asosiy tarkibiy qismlaridan biri hisoblanadi. Chunki pedagog dars davomida o‘quvchilarga bilim berish ularni mustaqil fikrlashga yo‘naltirish va samarali muloqot o‘rnatishda yuksak nutq madaniyatiga ega bo‘lishi zarur.

Ta’lim jarayonida nutqiy kompetensiyani shakllantirish o’quvchilarning dunyoqarashi, tafakkuri hamda ijodiy yondashuvini rivojlantirishga xizmat qiladi. Ayniqsa, kelajakdagi pedagoglarda to’g’ri talaffuz, boy lug’at zaxirasi va mantiqiy bayon qilish malakalarini takomillashtirish muhim hisoblanadi. Bunday ko’nikmalar o’qituvchining darsni tushunarli olib borishi, o’quvchilar bilan erkin muloqot qilishi va ta’lim samaradorligini oshirishiga yordam beradi. Ta’lim jarayonida fikr izchil ifodalash qobiliyatini shakllantirish kelajakdagi pedagoglarning kasbiy tayyorgarligining asosiy tarkibiy qismlaridan biri hisoblanadi. Chunki ustoz o’quvchilar bilan doimiy aloqa olib boradi, mavzuni tushuntiradi, savollarga javob beradi va tarbiyaviy suhbatlar tashkil etadi. Agar pedagogning nutqi aniq va ta’sirchan bo’lsa, o’quvchilar mavzuni tezroq qabul qiladi hamda dars jarayonida faol ishtirok etadi.

Hozirgi davrda zamonaviy pedagogik texnologiyalar hamda interfaol usullar orqali nutqni rivojlantirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Bahs –munozara, taqdimot, rol o’ynash, jamoaviy ishlash va mustaqil ijodiy topshiriqlar o’quvchilarning fikrlash faolligini oshiradi. Shu bilan birga, axborot-kommunikatsiya vositalaridan foydalanish ham ta’lim sifatini yaxshilashga xizmat qiladi.

Shuningdek, kitob mutolasi, badiiy asarlar tahlili hamda turli mavzuda suhbatlar tashkil etish bo’lajak o’qituvchilarning nutq boyligini kengaytiradi. O’z ustida muntazam ishlash, adabiy til me’yorlariga amal qilish va kommunikativ madaniyatni rivojlantirish orqali pedagoglar jamiyatda faol hamda bilimdon mutaxassis sifatida shakllanadi.

## Interfaol metodlar

Interfaol metodlar talabalarni erkin fikrlashga, muloqotga kirishishga va mustaqil xulosa chiqarishga o’rgatadi. “Aqliy hujum”, “Munozara”, “Klaster”, “BBB”, “Rolli o’yinlar” kabi metodlar talabalarning nutq faolligini oshirishda muhim vosita hisoblanadi.

Masalan, munozara metodida talabalar muayyan mavzu yuzasidan o’z fikrlarini asoslab berishga harakat qiladilar. Bu esa ularning nutq boyligi, mantiqiy tafakkuri va kommunikativ qobiliyatlarini rivojlantiradi.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalar yordamida taqdimotlar tayyorlash, videomashg’ulotlar orqali talabalar o’z nutqidagi kamchiliklarni tahlil qilish imkoniyatiga ega bo’ladilar.

## Kommunikativ yondashuv

Kommunikativ yondashuv asosida tashkil etilgan mashg’ulotlarda asosiy e’tibor muloqot jarayoniga qaratiladi. Bunda talabalar turli pedagogic vaziyatlarda o’z fikrini erkin bayon qilishga o’rganadi. Ushbu yondashuv bo’lajak o’qituvchilarning kasbiy nutqini shakllantirishda muhim o’rin tutadi.

Mazkur usulda dars jarayoni o’zaro fikr almashish va hamkorlikka asoslanadi. Ta’lim oluvchilar turli vaziyatlarda muloqot olib borish, savollarga javob qaytarish hamda qarashlarini aniq ifodalash malakasini egallaydi. Bunday faoliyat kelajakdagi pedagoglarning nutq madaniyati va kasbiy mahoratini rivojlantirishiga yordam beradi.

## Mustaqil ta’limning o’rni

Talabalarning mustaqil ravishda maqola, esse, taqdimot va ijodiy topshiriqlar tayyorlashi ham nutqiy kompetensiyaning rivojlanishiga xizmat qiladi. Mustaqil ishlash

jarayonida talaba izlanadi, tahlil qiladi va o‘z fikrini yozma hamda og‘zaki tarzda ifodalash ko‘nikmasiga ega bo‘ladi.

Individual topshiriqlarni bajarish jarayonida ta‘lim oluvchi izlanish olib boradi, ma‘lumotlarni o‘rganadi va xulosalar chiqaradi. Referat, ijodiy ish hamda prezentatsiyalar tayyorlash orqali yozma va og‘zaki bayon qilish qobiliyati shakllanadi. Shu bilan birga mustaqil faoliyat tafakkurni kengaytirib erkin mushohada yuritish ko‘nikmasini mustahkam qiladi.

### **XULOSA**

Xulosa qilib aytganda, bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarida nutqiy kompetensiyani shakllantirish pedagogik ta‘limning muhim yo‘nalishidan biridir. Zamonaviy pedagogic texnologiyalar, interaol metodlar va kommunikativ yondashuv asosida tashkil etilgan ta‘lim jarayoni talabalarning nutq madaniyati, muloqot ko‘nikmalari hamda kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Shu bois oliy ta‘lim muassasalarida nutqiy kompetensiyani rivojlantirishga qaratilgan innovatsion metodlarni keng qo‘llash maqsadga muvofiqdir.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. K.Qosimova. Ona tili o‘qitish metodikasi .
2. M.Mahmudov .Pedagogik mahorat.
3. N.Mahkamov. Nutq madaniyati va davlat tili.
4. J.Yo‘ldoshev. Pedagogik texnologiyalar.
5. S.Matchonov. Boshlang‘ich ta‘lim pedagogikasi.
6. B.To‘xliyev. Nutq madaniyati va uslubiyat asoslari.
7. Abdulla Avloniy .Turiy guliston yoxud axloq .